

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 632 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anjonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIVAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M.Mirsadikov, M.Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safojev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutrayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIYAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLİYALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	534
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	540
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	



PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDAGI PNEVMOQUVUR TIRSAK MATERIALINI YAXSHILASH ORQALI PAXTA SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH	546
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH	549
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
DEHQON XO'JALIKLARIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK XAVFSIZLIGI VA UNING BAHOLASH USULLARI.....	553
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRILGAN KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY NATIJADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	557
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNING ORTIB BORISHI JAHON MIQYOSIDA JORIY ETILAYOTGAN BUSINESS READY REYTINGIDAGI BAHOLASH NATIJALARIDA YAQQOL NAMOYON BO'LMOQDA.....	562
Platov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA INVESTITSIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.....	570
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISHDA SANOAT CHIQINDILARNI FOYDALANISHNING DUNYO VA O'ZBEKISTON MIQYOSIDAGI HOLATI	574
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
KORXONALAR ISHLAB CHIQRISH POTENSIALINING XUSUSIYATLARI VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	578
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV SUG'URTA INSTITUTINING RIVOJLANISH ZARURATI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	583
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING STUDENTS' DIGITAL COMPETENCE	588
Jalqasbayev Sultanbek Tayrbek uli	
KREATIV TURIZMDA YANGI TAJRIBALAR YARATISH: IJODIY KLASSTERLAR, MAHALLIY HUNARMANDCHILIK VA IMMERSIV TEXNOLOGIYALAR ROLI	593
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	599
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY MAHSULOTLAR	605
Nazarova Umida Mamadali qizi	
CREDIT RISK MANAGEMENT AND PROFITABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN AN EMERGING MARKET: THE CASE OF UZBEKISTAN	609
Ruzmamat Khudayberganov Shokirjon ugli, Sobirov Yuldoshboy Ruzimboevich, Nodirbek Fayzullaev Baxtiyor Ugli	
PAXTA XOMASHYOSIDAGI IFLOSLIKLARNI TOZALASHDA UNUMDORLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OPTIMAL PARAMETRLARNI ANIQLOVCHI MATEMATIK MODEL.....	616
Karimov Abdusamat Ismonovich, Imomnazarova Nurjaxon	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО И ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	621
Муродбек Болтабоев	



YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	626
Valiev Umid Gulamovich	



YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR

Valiev Umid Gulamovich

O'zmilliybank AJ, "Kelajakka qadam"

Markazi direktori o'rinbosari

E-mail: UValiev@nbu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish jarayonida kuzatilayotgan asosiy muammo va kamchiliklar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari yoshlarning kredit va investitsiya resurslariga kirishida garov ta'minoti yetishmasligi, venchur kapital bozori rivojlanmaganligi, moliyaviy savodxonlikning past darajada ekani kabi omillar sezilarli to'siq bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, davlat dasturlari samaradorligini oshirish, kafolat instrumentlarini joriy qilish, venchur va kraudfanding mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kaliit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, moliyalashtirish, garov ta'minoti, venchur kapital, kraudfanding, moliyaviy savodxonlik, startaplar.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the key challenges and shortcomings observed in the financing of youth entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan. The findings indicate that limited access to credit and investment resources, insufficient collateral capacity, the underdeveloped venture capital market, and the low level of financial literacy remain significant barriers to launching and expanding youth-led businesses. Based on the analytical results, the study proposes measures to enhance the effectiveness of government programs, introduce guarantee mechanisms, and foster the development of venture capital and crowdfunding instruments for supporting youth startups.

Keywords: youth entrepreneurship, financing, collateral constraints, venture capital, crowdfunding, financial literacy, startups.

Аннотация. В данной статье проведён системный анализ ключевых проблем и недостатков, наблюдаемых в процессе финансирования молодёжного предпринимательства в Республике Узбекистан. Результаты исследования показывают, что ограниченный доступ молодёжи к кредитным и инвестиционным ресурсам, недостаточность залогового обеспечения, слабое развитие рынка венчурного капитала и низкий уровень финансовой грамотности остаются существенными барьерами для старта и роста молодёжного бизнеса. На основе аналитических выводов предложены меры по повышению эффективности государственных программ, внедрению гарантийных механизмов, а также развитию венчурных и краудфандинговых инструментов поддержки стартапов.

Ключевые слова: молодёжное предпринимательство, финансирование, залоговое обеспечение, венчурный капитал, краудфандинг, финансовая грамотность, стартапы.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali nafaqat yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, balki mamlakat iqtisodiyotining innovatsion salohiyati ham mustahkamlanmoqda. Shu sababli yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish masalasi milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar tadbirkorligi milliy iqtisodiy taraqqiyotning uzoq muddatli barqaror o'sish modelini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yoshlarning innovatsion salohiyati, texnologik fikrlashi va yangicha biznes g'oyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish qobiliyati iqtisodiy transformatsiyaning asosiy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, ko'plab rivojlangan davlatlarda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash strategik ustuvor yo'nalish sifatida qaralib, ularni moliyalashtirishning institutsional, infratuzilmaviy va fiskal mexanizmlari kompleks tarzda shakllantirilgan.



Shunga qaramay, amaliyotda yosh tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda. Bank kreditlari olishda garov ta'minotining yetishmasligi, kafolat va sug'urta mexanizmlarining sust ishlashi, shuningdek, moliyaviy savodxonlikning pastligi yoshlar uchun sezilarli to'siq bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, startap loyihalarni baholash va ularni tijoratlashtirish jarayonida ham tizimli kamchiliklar mavjud.

Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimining samaradorligini ta'minlash uchun davlat, bank-moliya sektori va xususiy investorlar o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmini shakllantirish zarur. Shu nuqtai nazardan, mavjud muammolarni tahlil qilish, ularning ildiz sabablarini aniqlash hamda samarali takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish masalasi hozirgi davrda nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham dolzarb bo'lib bormoqda. Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish masalalari bo'yicha so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonning murakkab institutsional, moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Xalqaro tajribada yosh tadbirkorlar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi, asosan, institutlarning sifatiga, moliya bozorlarining rivojlanganlik darajasiga va davlat tomonidan yaratilayotgan kafolat mexanizmlariga tayanadi.

Draker innovatsion tadbirkorlikning barqaror rivoji uchun moliyalashtirish tizimi ko'p qatlamli bo'lishi zarurligini ta'kidlab, ayniqsa yoshlar uchun grantlar, subsidiyalar va mentorlik xizmatlarining bir butun ekotizim sifatida ishlashi muhimligini ko'rsatadi [1]. Uning fikricha, yoshlar tadbirkorligi bozor mexanizmlaridan tashqari, institutsional qo'llab-quvvatlovga ham yuqori darajada tayanadi.

Reynolds va Vayt tomonidan 73 mamlakat bo'yicha o'tkazilgan "Global Entrepreneurship Monitor" (GEM) tadqiqotlari yoshlarning tadbirkorlik salohiyati moliyaviy muhitning inklyuzivligi va davlat kafolatlarining mavjudligiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi [2]. Ular yoshlar uchun "finanslashtirilgan startap muhitining mavjudligi" tadbirkorlik ehtimolini sezilarli oshirishi haqida xulosa chiqaradi.

Robson va Kenneyning Yevropa Ittifoqi davlatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari yoshlar biznesining moliyaviy resurslarga kirishida kredit kafolat agentliklari, startap-inkubatsiya markazlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan akseleratorlarning hal qiluvchi rolini aniqlaydi [3]. Ularning fikricha, xususiy sektor faolligining past bo'lgan mintaqalarda aynan davlat institutlari moliyaviy infratuzilmaning asosiy drayveri hisoblanadi.

Maleki innovatsion hududlar uchun yoshlar startaplarini moliyalashtirishda venchur kapital bozori rivoji, texnoparklar va tadbirkorlik universitetlarining o'rni haqida fikr yuritir ekan, yoshlar uchun dastlabki bosqichda "seed-funding" dasturlarining ahamiyatini urg'ulaydi [4]. Unga ko'ra, yoshlar uchun kichik summadagi boshlang'ich kapital ham startapning muvaffaqiyatga erishish ehtimolini 3-4 baravarga oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish jarayonida kuzatilayotgan muammolarni aniqlash va ularning sabab-oqibatlarini baholash uchun tizimli yondashuv qo'llanildi. Analitik tahlil usuli orqali normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va ilmiy manbalar o'rganildi. Empirik ma'lumotlarni yig'ish maqsadida yoshlar, startap tashabbuskorlari va ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan taqqoslanib, samarali moliyalashtirish modellari aniqlab olindi. Shuningdek, muammolarni baholashda ekspert fikrlari va mavjud statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlar tadbirkorligi iqtisodiyot rivojlanishining drayveri, kichik va o'rta biznes hisobiga mahalliy budjetni to'ldirish manbai va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Demak, mazkur segmentning asosiy xususiyatlari, birinchi navbatda, innovatsiyaga ochiqlik, ijtimoiy-iqtisodiy noaniq sharoitlarga moslasha olish va tavakkalchilikka asoslangan qarorlarni qabul qilish qobiliyatidan iboratdir.

Biroq yoshlarning o'z biznesini ochish va rivojlantirishda duch keladigan muammolarining o'ziga xosligini ham qayd etish lozim. Biznes g'oyasi mavjud yoshlar duch kelayotgan muammolarning muhimlarini aniqlash uchun yoshlar tadbirkorligini o'rganishga bag'ishlangan nashrlar tahlil qilindi. O'rganishlar asosida yoshlar tadbirkorligining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammo va tizimdagi bo'shliqlar ikki guruhga ajratish mumkin: shaxsiy yoki motivatsion omillar, professional bilim va tajribaning yo'qligi hamda me'yoriy hujjatlar bilan bog'liq muammolar.

Birinchi guruh yoshlardagi ijtimoiy kayfiyatning pastligi bo'lib, ularda tavakkal qilish, yangilik yaratishga tayyorlik, tadbirkorlik ruhi va motivatsiyaning zaifligi kuzatiladi. Yoshlar ko'proq yirik biznes yoki davlat xizmatining barqarorligini tadbirkorlik tavakkaliga nisbatan afzal ko'radilar.

Ikkinchi guruhda asosiy muammo sifatida tadbirkorlik sohasida professional va maxsus bilimlar, tajriba va mentorlik tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligini qayd etish mumkin.

Global Entrepreneurship Monitor Consortium statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha taxminan 300 million yosh yigit-qiz doimiy ish joyiga ega emas yoki umuman ishsiz. Ulardan taxminan 20% o'z biznesini boshlash qobiliyatiga ega, ammo turli sabablarga ko'ra faqatgina 5%i o'z biznesini boshlay olgan.

1-jadval. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

№	Savollar	Berilgan javoblar	So'rovnoma qatnashgan talabalar soni	%
Jami:			109 500	100
1	Oliygo'hnini tamomlagandan so'ng maqsadingiz qanday?	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchiman	12 722	12
a	Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirganmisiz?	Ha tayyor biznesni davom ettiraman	7 851	7
b		Ha, biznes rejam bor, biroq moliyaviy mablag'im yetarli emas	2 900	3
c		Yo'q, lekin, biznes qilish uchun o'z ustimda ishlamoqchiman	1 971	2

Manba: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumoti (01.05.2025-y.)

Yuqoridagi jadvalda "Kelajakka qadam" dasturi doirasida oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari keltirilgan. So'rovnoma 2025-yilning may oyida HEMIS oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi yordamida o'tkazilgan bo'lib, unda 109 500 nafar bitiruvchi talaba (respondent) ishtirok etgan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari haqiqatdagi vaziyatni ochib bergan deb aytish mumkin. Sababi, 2024-2025-o'quv yilini bitirayotgan 260 ming nafar talabadan 42%i ishtirok etgan. Bu esa o'tkazilgan so'rovnoma katta miqyosda tashkil qilinganligini hamda obyektiv holatga to'g'ri baho berish imkonini yaratdi.

Hususan, so'rovnomada berilgan "Oliygo'hnini tamomlagandan so'ng maqsadingiz qanday?" degan savolga bitiruvchilarning 12,7 ming nafar (12%)i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan. Shundan 7,8 ming nafar (7%)i mavjud (oilaviy, yaqin qarindosh yoki tanishlarining) biznesini davom ettirishini ta'kidlagan bo'lsa, 2,9 ming nafar (3%)i tadbirkorlik rejasi mavjudligini, ammo moliyaviy mablag' (husus, garov ta'minoti) yetishmasligini qayd etgan. Shuningdek, 2,0 ming nafar (2%)i biznes boshlashdan avval tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga ehtiyoji borligini ko'rsatib o'tgan.

Yuqorida keltirilgan so'rovnoma natijalari va xorijiy hamda mahalliy adabiyotlar tahliliga asosan yoshlar tadbirkorligining rivojlanishida mavjud asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- imtiyozli kreditlarni olishda hujjatlashtirish jarayonining murakkabligi;
- startap loyihalarini baholashda tajribali ekspertlar yetishmasligi;
- ventur kapital va biznes-angellar bozorining rivojlanmaganligi;
- moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi.

Umuman, yoshlar tadbirkorligi yuzasidan olib borilayotgan ishlarning samaradorlik tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020-2024-yillarda yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 3,5 baravarga oshgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorlik darajasi o'rtachadan past darajada saqlanib qolmoqda. Bu esa moliyalashtirish mexanizmlarini yanada diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.



2-jadval. Yoshlar tadbirkorlarining moliyaviy resurslarga kirishida uchraydigan asosiy cheklavlar

№	Cheklav turi	Batafsil ilmiy tavsif
1	Garov talablarining yuqoriligi	Yosh tadbirkorlarning 70% dan ortig'i kredit olishda garov yetishmovchiligi sabab rad javobi oladi. Ko'chmas mulkka egalik darajasi past bo'lgani uchun an'anaviy bank kreditlariga kirish keskin cheklangan.
2	Kredit tarixining shakllanmaganligi	18–30 yoshdagi tadbirkorlarning aksariyati kredit tajribasiga ega emas, banklar esa yuqori risk tufayli foiz stavkalarini oshiradi yoki kreditni bermaydi.
3	Venchur va xususiy investitsiyalarning sustligi	Mamlakatda faol venchur fondlar soni juda kam, mavjud fondlarning investitsiya hajmi esa yoshlar startaplari uchun yetarli emas. Investorlar xavf darajasini yuqori deb baholaydi.
4	Moliyaviy mahsulotlarning moslashtirilmaganligi	Yoshlar uchun mo'ljallangan maxsus kredit liniyalari, risklarni pasaytiruvchi kafolat mexanizmlari, "soft-loan" tizimlari yetarlicha rivojlanmagan.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Jadval shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda asosiy to'siqlar strukturaviy xarakterga ega bo'lib, ularning aksariyati kapitalga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq. An'anaviy bank tizimi yosh tadbirkorlar ehtiyojiga moslashtirilmagan, risklarni baholash mexanizmlari esa murakkab va qat'iy. Venchur bozorining sustligi innovatsion startaplarning rivojlanishini jiddiy cheklaydi. Shu sababli kredit kafolatlari, davlat ishtirokidagi venchur fondlar va yoshlar uchun moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlar tizimini yaratish zarurati keskin ortmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun, birinchi navbatda, ularning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Buni maktab va oliy ta'lim tizimida iqtisodiyot fanlari bo'yicha dars soatlarini ko'paytirish orqali ekstensiv, aholi uchun moslashtirilgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida iqtisodiy bilimlarni o'rgatish orqali esa intensiv yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Yosh tadbirkorlar o'z biznes tashabbuslarini real sharoitda amalga oshirishlari uchun mamlakatdagi makroiqtisodiy va institutsional barqarorlikning ta'minlanishi, shuningdek, "ertangi kunga ishonch" muhitining shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznesning bozorga kirish jarayonini yengillashtirish, ortiqcha rasmiy protseduralarni qisqartirish, eskirgan normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini tizimli ravishda rivojlantirish talab etiladi.

Mazkur yo'nalishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun moliyaviy savodxonlik kurslarini keng joriy etish, yoshlar uchun kafolat jamg'armalarini shakllantirish, biznes inkubatorlar va kovorking markazlari tarmog'ini rivojlantirish, elektron moliya platformalariga kirishni kengaytirish, venchur fondlar va xususiy investorlar faolligini oshirish maqsadga muvofiq yechimlar sifatida taklif etiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar startaplarini venchur kapital va kraudfanding orqali moliyalashtirish nafaqat resurs jalb qilish vositasi, balki innovatsion ekotizimni shakllantirish va tadbirkorlikning yuqori qo'shilgan qiymatli segmentlarini rivojlantirishning strategik omilidir. O'zbekistonda bu yo'nalish hozirda institutsional shakllanish bosqichida bo'lib, davlat–bank–xususiy sektor hamkorligi asosida yangi moliyaviy mexanizmlar yaratish katta imkoniyatlar ochadi.

Yoshlar startaplarini qo'llab-quvvatlashni kengaytirish uchun venchur kapital bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish, kraudfanding platformalarini litsenziyalash mexanizmini joriy etish, davlat grantlarini venchur sarmoya bilan integratsiyalash, fintex loyihalar uchun "regulatory sandbox" muhitini yaratish, yoshlar uchun moliyaviy savodxonlik akademiyasini tashkil etish va innovatsion loyihalar uchun soliq hamda bojxona rag'batlarini kengaytirish zarur. Venchur va kraudfanding mexanizmlarining rivojlanishi yoshlar uchun faqat moliyaviy ko'mak emas, balki innovatsion iqtisodiyotning yangi avlodini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks strategiya hisoblanadi. Shu jihatdan fintex, lizing, grant va boshqa zamonaviy moliyaviy instrumentlar yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi va ular orqali mamlakatda global raqobatbardosh startap ekotizimini yaratish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-60-sonli Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/7386867>
- 2025-yil 14-fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/7386917>
- 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-sonli Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/7387025>



4. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.
5. Druker P. Innovatsiyalar va tadbirkorlik: amaliy qo'llanma. Nyu-York: Harper Business, 2007. 389 b.
6. Reynolds P., White S. Global Entrepreneurship Monitor: Global Report. London: GEM Consortium, 2019. 124 b.
7. Robson M., Kenney M. Youth Entrepreneurship Support Systems in the European Union // European Business Review. 2021. № 3. B. 44-57.
8. Malecki E. J. Entrepreneurship and Regional Development: The Role of Innovation Infrastructure. – Boston: Routledge, 2018. 276 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100